ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Yuldashov Nosir G‘anijonovich,

Osiyo Xalqaro universiteti

Pedagogika va Psixalogiya fakulteti 2- kurs magistranti

DISFUNKSIONAL OILADAGI MUNOSABATLARNING O'SMIRLARNING DIVIANT XULQ-ATVORGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK SABABLARINI O‘RGANISH.

Annotatsiya: Ushbu maqolada delinkvent va deviant xulq-atvor tushunchalarining mohiyati, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ayniqsa, o‘smirlar orasida uchraydigan me’yordan og‘ish xatti-harakatlarining asosiy sabablari, ularning shakllanishi va ijtimoiy oqibatlari yoritiladi. Shuningdek, profilaktika va reabilitatsiya choralarining ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: deviant xulq-atvor, delinkvent xatti-harakat, o‘smirlar, psixologik og‘ish, ijtimoiy nazorat, profilaktika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность понятий девиантного и делинквентного поведения, а также биологические, психологические и социальные факторы, влияющие на их формирование. Особое внимание уделяется причинам отклоняющегося поведения среди подростков, а также его последствиям и значению профилактических и реабилитационных мер.

Ключевые слова: девиантное поведение, делинквентное поведение, подростки, психологическое отклонение, социальный контроль, профилактика.

Annotation: This article explores the essence of deviant and delinquent behavior, analyzing the biological, psychological, and social factors that influence their development. Particular attention is given to the causes of behavioral deviations among adolescents, the consequences of such behaviors, and the significance of preventive and rehabilitative measures.

Keywords: deviant behavior, delinquent actions, adolescents, psychological deviation, social control, prevention.

Jahon miqyosda deviant xulq-atvorli shaxslar xulqidagi o‘zgarishlar namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik sabablarini aniqlash va uni baholash o‘ta ilmiy ahamiyat kasb etib, psixologik bilimlar tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, suitsidial xulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan yangi psixologik xizmat dasturlarini joriy etish, jamiyat hayotida yoshlar faolligini oshirish va ularning kasbiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilg‘or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. 2019 yil Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (APA) ning navbatdagi ilmiy –amaliy konferensiyasida deviant xulq va yoshlar mavzusida diqqatga sazovor ma’ruza taqdim etilgan. Ma’ruzachi M.J.Sigalning fikricha, iqtisodiy rivojlanishi sust bo‘lgan va ijtimoiy islohotlar keng qamrovli kuchga ega bo‘lmagan jamiyatda, yoshlar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar ko‘p sodir bo‘ladi. Chunki, bunday jamiyatlarda qonuniylik va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik o‘rtasidagi chegaralar juda kichikdir1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida ...bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan

kim qiziqayapti? Bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo‘layotgani, o‘qishga qachon borib, qachon kelayotganini kim nazorat qilayapti? Yoshlar, xususan, o‘smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo‘layapti? Ba’zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani – achchiq bo‘lsa-da, haqiqat” degan edilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son »O‘zbekistonning yangi 1American Psychological Association. (2019). Publication Manual of the American Psychological Association (6th ed.). Washington, DC: American Psychological Association. 6 taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020 yil 30 iyundagi PF-6017-son «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmonlar, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020 yil 30 iyundagi PQ-4768-son «O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23 son»O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarorlar hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi2. Bugungi kunda deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidial holatlarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Stanford University, University of California, Purdue University, Iowa State Unversity, University of Michigan (AQSh), Kaliforniya universiteti (AQSh), Leiden University (Niderlandiya), Vuppertal universiteti (Germaniya), University of Haifa (Isroil), Jiangsu University (Xitoy), The University of Queensland (Avstraliya), A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universiteti, V.I.Vernadskiy nomidagi Tavr milliy universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya fanlar akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti va Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetlarida ta’lim tizimi va ijtimoiy institutlarda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Deviant xulq-atvor — bu jamiyat tomonidan umume’tirof etilgan axloqiy, huquqiy va madaniy me’yorlarga zid tarzda sodir etiladigan, mavjud ijtimoiy tartibga qarama-qarshi bo‘lgan xatti-harakatlar tizimidir. Bunday harakatlar ijtimoiy normalarning buzilishi, odat, urf-odat va qadriyatlarning inkori, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy mezonlarning chetlab o‘tilishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, o‘quvchilar orasida deviant xatti-harakatlar holatlari bugungi kunda tobora ko‘proq uchrab turibdi va deyarli har bir ta’lim muassasasida bu hodisaga duch kelish mumkin. Mazkur holatning keng tarqalishi nafaqat ta’lim sohasi vakillarini, balki sotsiologlar, psixologlar, shifokorlar, huquq-tartibot organlari xodimlari va boshqa mutaxassislarni ham jiddiy tashvishga solmoqda. Chunki deviant xulq-atvor shaxsning nafaqat o‘ziga, balki unga yaqin bo‘lgan ijtimoiy guruh va jamiyatning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu muammoning ildizida o‘quvchilarning tashqi dunyo bilan, ijtimoiy muhit bilan, shuningdek, o‘z “men”i bilan o‘zaro munosabatlaridagi murakkabliklar yotadi. Shu bois, deviant xulq-atvorning asosiy tushunchalari, unga oid nazariy yondashuvlar va ularni tavsiflovchi ilmiy konsepsiyalarni chuqur tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan. Deviatsiyaning mohiyatini anglash, uning shakllanishiga sabab bo‘luvchi ichki va tashqi omillarni, ya’ni “katalizator”larni aniqlash, bu holatga samarali yondashuvni ishlab chiqishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Deviant xatti-harakatlarning ta’rifi va izohi fanlararo yondashuvni talab qiladi. Har bir fan mazkur hodisani o‘z predmetiga xos mezonlar asosida tushuntiradi. Masalan, sotsiologiya deviant xulq-atvorni jamiyatdagi sotsial nazorat tizimining yetarlicha faol emasligi yoki sotsial muvozanatning buzilishi natijasi sifatida talqin etsa, psixologiya bu holatni shaxsning ichki

psixologik ziddiyatlari, affektiv holatlari yoki noadekvat ijtimoiy moslashuvi bilan bog‘laydi. Falsafa esa deviant xulq-atvorni yanada chuqurroq, mavjudlik va hayotiy maqsadlar nuqtai nazaridan yoritadi. Falsafiy yondashuvda inson xulq-atvori erkinlik, ong va tanlov bilan bog‘liq holda qaraladi. Insonning jamiyatdagi harakatlari va qarorlariga u yashayotgan muhit, uning axloqiy me’yorlar to‘plami, hayot mazmuni va qadriyatlar tizimi asosiy ta’sir ko‘rsatadi. Xulq-atvorni erkinlik kategoriyasi bilan bog‘lash, deviant harakatlar sabablarini insonning o‘z tanlovi va ijtimoiy mas’uliyatni qanday qabul qilishi bilan tushuntirishga xizmat qiladi. Psixologik yondashuvda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, avvalo, shaxs psixikasining individual xususiyatlari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Psixologiya bu holatni insonning ichki dunyosi, uning ehtiyojlari, hissiyotlari, intellektual va emotsional faoliyati, idrok va xarakter xususiyatlari, shuningdek, ong va ongsizlik darajasidagi kechinmalari asosida tushuntiradi. Har bir shaxs o‘ziga xos tajriba, dunyoqarash va xatti-harakatlar modeli bilan farqlanadi, shuning uchun deviant xatti-harakatlar psixologik nuqtai nazardan shaxsning o‘z ichki muammolariga bergan javobi sifatida talqin qilinadi.

Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи https://www.stanford.edu/, http://www.calstatela.edu/, https://www.uq.edu.au, https://www.universiteitleiden.nl/en, https://www.herzen.spb.ru, www.msu.ru, https://lk.pspu.ru, lk.pspu.ru (https://lk.pspu.ru/), https://tn.university ва бошқа манбалар асосида тайёрланган. 7 Bugungi kundan «normadan og‘ish» va «deviant xulq-atvor» tadqiq etilgan (Stanford University), turli guruhlarning psixologik tavsifi, ijtimoiy xulq-atvorning tamoyillari ishlab chiqilgan (University of Manchester) yoshlar bilan olib boriladigan xulq og‘ishlarining oldini olish bo‘yicha maxsus dasturlar yaratilgan (Bergische Universität), psixoprofilaktik ishlarning modeli va tuzilmasi ishlab chiqilgan (University of Melbourne), muayyan jamiyatni shaxs shakllanishiga ta’sirini o‘rganuvchi psixodiagnostik metodikalar tizimi takomillashtirilgan (Trento of universities), mehnat jamoalaridagi shaxslararo munosabat tizimini ilmiy va ijtimoiy-psixologik tamoyillar yordamida asoslab beruvchi konsepsiya yaratilgan (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti). Jahon psixologiya fani sohasiga zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida, o‘smir yoshlarda namoyon bo‘luvchi deviant xulq-atvor va uni oldini olishning ijtimoiy psixologik chora-tadbirlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan: o‘smir yoshidagi shaxslarda jamiyatda dezadaptatsiya jarayonlari, emotsional-irodaviy boshqaruv, individual-tipologik xususiyatlar, o‘smirlarda ta’lim muhitida ijobiy emotsional muhitni ta’minlash, turli yosh bosqichlarida namoyon bo‘ladigan inqirozli holatlarni o‘rganish tizimini shakllantirish, o‘smirlardagi o‘zini o‘zi boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini aniqlash, muvaffaqiyatli o‘quv faoliyatini shakllantirishda irodaviy jarayonlarning ahamiyatini tizimli tahlil qilish, deviant xulq-atvor namoyon bo‘lishidagi gender tafovutlarni aniqlash masalalari shular jumlasidandir. Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Deviant xulq-atvorli o‘smirlar muammosini o‘rganish dunyo mamlakatlaridagi ko‘pgina ilmiy markazlar va oliy o‘quv yurtlarining tegishli bo‘linmalarida olib borilayotgan tadqiqotlardagi ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Mazkur yo‘nalishga yaqin tadqiqot ishlarini yurtimiz psixolog olimlaridan D.Abdujabborova, G‘.B.Shoumarov, U.D.Qodirov, Z.R.Ibodullaev, Z.S.Elov, N.A. Sog‘inov, R.S.Samarov, B.M.Umarov, E.J. Nurimbetova va boshqalarning tadqiqotlarida shaxs, xulq, deviant xulq, suitsidal xulq-atvor namoyon bo‘lishining 8 psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan, lekin aynan deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidal holatlarni ilmiy muammo sifatida o‘rganilmagan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.G.Ambrumova, Y.L.Arzumanov, S.A.Belicheva, A.V.Boyeva, A.G.Gresov, Y.N.Ivanov, A.R.Korshunova, Yu.G.Kasperovich, I.A. Kudryavsev, R.Kochyuna, A.E.Lichko, I.I.Mamaychuk, L.M.Semenyuk, A.A.Frolova, M.Ya.Fenomenov, R.V.Fomina, I.V.Vachkov va boshqalar tomonidan o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda xulqi og‘ishganlik va addektiv xulq shakllari borasidagi tadqiqotlar keng qamrovli o‘rganilgan bo‘lib, lekin aynan deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidal holatlarni keltirib chiqaradigan motivatsiyalar ilmiy muammo sifatida o‘rganilmagan. Xorijiy psixolog olimlardan A.Bandura, G.Bekker, V.Boysex, Y.Vrono, E.Erikson, E.Dyurkgeym, Z.Freyd,

S.Linga, Ch.Lomborzo, K.Yung, E.Krechmer, K.Menninger, S.Miller va boshqalar tomonidan suitsidal xulq motivatsiyasinining komponentlari va funksiyalari masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi o‘smirlarda deviant xulq-atvorga moyillik motivatsiyasini aniqlash va korreksiyalashning psixologik mexanizmlari bo‘yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari: deviant xulq-atvorli o‘smirlar xulqida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-psixologik komponentlarini aniqlash; o‘smirlarda deviant xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan psixokorreksion trening mashg‘ulotlari yordamida psixoprofilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqish; o‘smirlarda deviant xulq-atvorni bartaraf etishda ijtimoiy-psixologik xizmatning shaxs tuzilishi o‘zgarishidagi ta’sirini empirik jihatdan tadqiq etish. Tadqiqotning ob’yekti Buxoro viloyati IIB huzuridagi voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazidagi 80 nafar o‘smir. Tadqiqotning predmetini deviant xulq-atvorli o‘smirlardagi xulq buzilishining sabablarini aniqlash va korresiyalashning psixologik mexanizmlari tashkil etadi. 9 Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» testi, Bass-Darkning «Tajovuz holati tashxisi» so‘rovnomasidan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: deviant xulq-atvorli o‘smirlarda xulq buzilishiga sabab bo‘kuvchi ijtimoiy psixologik komponentlarini aniqlangan; o‘smirlarda deviant xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan psixokorreksion trening mashg‘ulotlari yordamida psixoprofilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqilgan; o‘smirlarda deviant xulq-atvorni bartaraf etishda ijtimoiy-psixologik xizmatning shaxs tuzilishi o‘zgarishidagi ta’sirini empirik jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: talabalarda ijodkorlik, kreativlik, qayta yaratuvchanlik, ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi tafakkur xususiyatlari aniqlangan; talabalarda ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik vositalar, shakl va usullar majmui aniqlangan; talabalarda pedagogik-psixologik barqarorlik xususiyatlari ularning o‘z hissiyotlari, g‘oyalari, xatti-harakatlarini to‘g‘ri boshqara olish, o‘zini-o‘zi tartibga solish, aqliy qobiliyatlarining rivojlantirish natijasida o‘quv, ilmiy-innovatsion faoliyatning samaradorligini ta’minlashi isbotlangan; talabalarda ilmiy-innovatsion faoliyatning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan; talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish, motivatsion sohalari, individual psixologik xususiyatlari, hissiy-irodaviy sifatlarining o‘ziga hos jihatlarini shakllantirishga qaratilgan maxsus model va trening dasturi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma’lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan 10 ko‘rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda to‘plangan natijalarining ilmiy ahamiyati umumta’lim maktablari o‘smir o‘quvchilari faoliyatida namoyon bo‘luvchi deviant xulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan nazariy va metodologik jihatdan yangi ma’lumotlar bilan boyitilganligi va olingan natijalar mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini takomillashuviga, o‘smir o‘quvchilarning deviant xulq-atvorni yenga olishiga va maktab amaliyotchi psixologining faoliyatga ilmiy yondoshuvini ta’minlaydi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, xalq ta’lim muassasalari tizimida ijtimoiy psixologik xizmatni tashkil etishda, o‘smir o‘quvchilarining faoliyatida deviant xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilishda, o‘quv faoliyatida ma’naviy va aqliy-intellektual jarayonlarni rivojlantirishda samara beradi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan maktab amaliyotchi psixologlari, xalq ta’limi muassasalari o‘qituvchilari va ota- onalar keng foydalanishi mumkin.

1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi. (2023). Voyaga etmaganlar orasidagi huquqbuzarliklar statistikasi: 2019–2023 yillar. IIV nashriyoti.

2. R Core Team. (2023). R: A language and environment for statistical computing. R Foundation for Statistical Computing.

3. Umarov, B., & Nazarova, M. (2021). SDQ so'rovnomasini o'zbek tiliga moslash tajribasi. Psixologiya va pedagogika: Nazariya va amaliyot

4.. NASP (National Association of School Psychologists). (2020). Appropriate academic and mental health support. NASP Publications.

5.Tillayev, A. (2020). Buss-Perry agressiya so'rovnomasining o'zbek tilidagi versiyasi: psixometrik tekshiruv. O'zbekiston psixologiya jurnali. 93

6. Nazarov, S., & Toshmatov, R. (2020). O'zbekistonda o'smirlar deviantligi: sotsial-psixologik tahlil. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. 13.

7. Kenyon, C., et al. (2019). Psychometric evaluation of the Pediatric ACEs and Related Life Events Screener (PEARLS). Child Abuse & Neglect.

8.Nazarova, M. (2019). Rosenberg o'z-o'zini qadrlash shkalasini o'zbek tiliga moslashtirish. Psixologiya muammolari.